O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVACIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi.
№ 23/15-3/1
2023 yil “31” avgust

“TASDIQLAYMAN”
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti rektori
Ataniyazova O.A
2023 yil “___” iyun

EPIDEMIOLOGIYA, HARBIY EPIDEMIOLOGIYA
O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	900000 – «Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot»
Ta’lim sohasi:	910000 – «Sog‘liqni saqlash»
Ta’lim yo‘nalishi:	60910300 – «Pediatriya»

Nukus– 2023

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
3.29	2023-2024	6	3,5

Fan/modul turi	Ta‘lim tili	Haftadagi dars soatlari
majburiy	Qoraqalpoq, o‘zbek, rus	6

	Fanning nomi	Ma’ruza (soat)	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama
1	Epidemiologiya, harbiy epidemiologiya	8	64	54	126

2

I. Fanning mazmuni

Epidemiologiya, harbiy epidemiologiya moduli o‘quv rejaning klinik modullari blokiga taalluqli bo‘lib, 3 kursda o‘qitiladi va umumiy shifokor pediatrida tibbiy bilimlar asosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Epidemiologiya, harbiy epidemiologiya moduli talabaga epidemiologik jarayonning xususiyatlari, ko‘rinishi, rivojlanish mexanizmi,epidemiyaga qarshi tadbirlar tizimi va mohiyati, qo‘llaniladigan preparatlar va texnik vositalar, ulardan foydalanish usullari, davolash muassasalari sharoitida yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi va tarqalish xususiyatlari, kasalxona ichida tarqaluvchi infektsiyalarni epidemiologik nazoratini va oldini olish asoslarini bilishi, xamda amaliyotda ishlata bilish imkoniyatini beradi.

Modulni o‘qitish uchun klinik epidemiologiya, yuqumli kasalliklar, mikrobiologiya, farmakologiya modullari zamin hisoblanadi. U boshqa modullar bilan birgalikda organizm to‘g‘risida yaxlit ma’lumotga ega bo‘lishni, shu bilan birga talabada klinik fikrlash qobiliyatini rivojlanishini ta’minlaydi.

Modul dasturi tibbiy ta’lim soxasining O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti, Pediatriya ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining Malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Mazkur modul dasturi mavzulari tibbiyot oliy ta’lim muassasalari bakalavriat bosqichi klinika modullarining dastur mavzulari bilan uzviy bog‘liq holda yaratiladi.

Modul o‘qitishdan maqsad - epidemiologiyaning umumiy tibbiyotda va epidemik jarayonni o‘rganuvchi modul sifatidagi nazariy bilimlari va uslubiy asoslarini bilgan holda yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini amalga oshirish uchun epidemiologik tashxis qo‘yish usullarini o‘zlashtirish, davolash profilaktik muassasalarida va kasallik o‘choqlarida, shuningdek ekstremal sharoitlarda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan epidemiologik oqibatlarda profilaktik uslublarni qo‘llash hamda epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini egallash, bo‘lajak umumiy shifokor pediatrini tayyorlash.

Modulning vazifalari:

-epidemiologiyaning umumiy nazariy kontseptsiyasi (mohiyati) va uni epidemik jarayon haqidagi ta’limotga ilova etilishini to‘g‘ri talqin qila bilish;

-epidemik jarayonning kelib chiqishi, rivojlanishi va namoyon bo‘lishi ob'ektiv qonuniyatlarini o‘rgatish;

-yuqumli kasalliklar epidemik o‘choqlarida o‘tkaziladigan profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar tartibi va tarkibini o‘zlashtirish

borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish;

-epidemiologik tekshirish usullarining asoslarini o‘zlashtirish; - epidemik holatni ob'ektiv baholashga asoslangan epidemiologik va klinik fikrlashni shakllantirish;

-tinchlik va urush davrida epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni o‘tkazish tartiblari va harbiy holatdagi xududlarni ustidan nazorat olib borish, epidemik o‘choqlarni epidemiologik tekshirish va sanitar-epidemiologik razvedka o‘tkazish.

Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Talaba:

-yuqumli kasalliklar epidemik o'choqlarida epidemiologik tekshirish o'tkazish va yuqumli kasalliklar epidemik avj olishlarining (epidemicheskiye vspıshki) tasnifi;

-immunoprofilaktika o'tkazish va tashkillashtirish asoslari;

-ommaviy shikastlanish o'choqlari va ekstremal vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish xususiyatlari;

-sanitar-epidemiologik laboratoriyasi uchun belgilangan laborator tekshiruvlar va bakteriologik qurol indikatsiyasi haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***

-Yuqumli kasalliklar epidemiologik anamnezini to'g'ri to'play olishni;

- Yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilarining infektsiya manbalari, tarqatish yo'llari va omillarini erta aniqlashni;

-kasalliklarning kelib chiqishi va rivojlanishini oldini olishni;

-tibbiy evakuatsiya bosqichlarida yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkillashtira olishni;

-sog'lom hayot tarzini tashviqot qilish, sanitar oqartuv ishlarini o'tkazishni;

-yuqumli kasalliklar o'chog'ida birlamchi profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazishni;

-profilaktik emlash kalendar-rejasini tuzish, emlashga ko'rsatma va moneliklar shuningdek profilaktik emlashni o'tkazishni;

- joriy va yakuniy dezinfektsiya o'tkazish taktikasini bilishni;

- vaktsinatsiya va revaktsinatsiya o'tkazish uchun shaxslarni saralanishini;

- emlash jadvalini tuzish uslubini bilish, profilaktik emlash xujjatlarini to'ldirishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

- epidemik o'choqlarida infektsiya manbalariga qaratilgan, o'tish mexanizmini uzish bo'yicha va muloqatda bo'lgan shaxslarga nisbatan olib boriladigan epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- bemorlar va ular bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni laborator tekshirish;

- dezinfektsiya, dezinsektsiya, deratizatsiya va sterilizatsiya yuzasidan, profilaktik va joriy dezinfektsiya va sterilizatsiya o'tkazish;

- dezinfektsiya va sterilizatsiya o'tkazish uchun zarur bo'lgan preparatlar va texnik vositalarni qo'llay olish;

- yuqumli kasalliklar profilaktikasi bo'yicha sanitar oqartuv ishlarni o'tkazish;

- yuqumli kasalliklar epidemik o'choqlarida muloqotda bo'lgan shaxslar o'rtasida shoshilinch (ekstrennaya) profilaktika o'tkazish;

- karantin va o'ta xavfli infektsiyalarda profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish;

- qoida va tartibi bo'yichahimoya vositalarini kiyish va yechish;

- tinchlik va urush davrida epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni o'tkaza olish;

- harbiylarni bakteriologik qurolga qarshi himoya rejasini tuzish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Umumiy epidemiologiya. Yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar epidemiologiyasi tug'risida tushuncha. Epidemik jarayon ta'limoti asoslari. Epidemiologik tekshirish usullari.

2-mavzu. Virusli gepatit va OITS kasalligida epidemiyaga qarshi choratadbirlarni tashkillashtirish.

3-mavzu. Karantin va o'ta xavfli infektsiyala (vabo, o'lat, kuydirgi, gemorragik isitma). Epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkillashtirish jarayonlari.

4-mavzu. Immunoprofilaktika vositalari bilan boshqariladigan havo tomchi infektsiyalarining epidemiologiyasi va profilaktikasi.

III.Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Asosiy epidemiologik tushunchalar, epidemiologik jarayon va uning turlari xaqida tushuncha, ularning taxlili. Epidemik o'choqdagi choratadbirlar. Dezinfektsiya, dezinsektsiya, deratizatsiya va sterilizatsiya. Turlari, vosita va usullari.

2.Virusli gepatitlar (A, V,S, D) kasalligida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkillashtirish.

3.OIV/ OITS kasalligida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkillashtirish.

4.O'tkir ichak infektsiyalarida (O'II): ichburug', salmonellyoz, tif-paratif kasalliklarida (TPK) epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkillashtirish.

5.O'zbekiston Respublikasiga o'ta xavfli infektsiyalar va karantin kasalliklar kirib kelishi va tarqalishini sanitar qo'riqlash chora-tadbirlari. O'ta xavfli infektsiyalarda epidemiyaga qarshi choratadbirlarni tashkillashtirish. Vabo, o'lat, kuydirgi, gemorragik isitma.

6.Parazitar kasalliklarning epidemiologiya va profilaktika xususiyatlari. Bezgak va gijja kasalliklari.

7.Havo-tomchi infektsiyalarining epidemiologiyasi va profilaktikasi (O'RVI, koronavirusli infektsiya, meningokokk infektsiyasi va skarlatina).

8.Havo-tomchi infektsiyalarining epidemiologiyasi va profilaktikasi (bo'g'ma, ko'kyo'tal, qizamiq, qizilcha, epidemik parotit infektsiya).

9.Kasalxona ichi infektsiyalarining epidemiologiyasi va profilaktikasi.

10. Harbiy epidemiologiyaning mazmuni va vazifalari. Bioterrorizm. Biologik qurol.

11. Harbiy qo'shinlarda o'tkaziladigan epidemiyaga qarshi choratadbirlarning mazmuni va ularni tashkillashtirish.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1.Yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bemorlar qabul qilish

2.Epidemiologik anamnezini yig'ish;

3.Joriy va yakuniy dezinfektsiya o'tkazish taktikasini bilish, emlash jadvalini tuzish uslubini bilish, profilaktik emlash xujjatlarini to'ldirish;

4.Shaxsiy himoya kiyimini kiyish va yechish;

5.DSNEMga shoshilinch xabarnomani 058/u tuldirish.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1.O'II epidemik o'chog'ida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari.

2.Enteral virusli gepatitlarning epidemik o'chog'ida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari.

3.Parenteral virusli gepatitlarning epidemik o'chog'ida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari.

4.OIVning epidemik o'chog'ida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari.

5.Zoonoz yuqumli kasalliklar (quturish, kuydirgi, brutsellyoz) epidemik o'chog'ida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari.

6.O'ta xavfli infektsiyalar epidemik o'chog'ida epidemiyaga qarshi choratadbirlari.

7.Gelьmintozlar epidemik o'chog'ida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari.

8.Emlash jadvali. Vaktsinatsiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.

9.Harbiy epidemiologiyaning bo'limlari va uning vazifalari.

10.Harbiy qismlar orasida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar tizimi.

11.Harbiy xarakatlar vaqtida xarbiy qismlarni epidemiyaga qarshi ta'minlash strukturasi.

12.Biologik qurol va uning boshqa turdagi qurollardan farqi.

13.Biologik qurol turlari va qo'llash usullari.

14.Biologik qurol asoratlaridan xarbiy qismlarni himoyalashga qaratilgan epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar.

15.Bakteriologik razvedka, indikatsiya. Observatsiya va karantinda o'tkaziladigan chora-tadbirlar.

16.Sanitar- epidemiologik razvedka (SER) va uning vazifalari.

IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

UK1 1. Abstrakt fikrlash, analiz, sintez qobiliyatlari, zamonaviy tibbiyot bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Kasbiy faoliyati sohasida foydalaniladigan axborotni yig'ish, saqlash va qayta ishlash uchun kompьyuter usullarini egallash;

UK 3. Yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarga amaliy vaziyatlarda kasbiy bilimlardan foydalanish qobiliyati;

UK 4. Epidemiologiya, harbiy epidemiologiya bo'yicha kasbiy faoliyatni moxiyatini tushunish va rivojlantirish qobiliyati;

UKK2 1. Bemorlarga tibbiy va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishning samaradorligini baholashga tayyorgarlik;

UKK 2. Bemorlarni malakali parvarish qilish va ularning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ma'lumotlardan foydalanishga

tayyorgarlik;

UKK 3. Kasbiy funktsiyalarni bajarish bilan bog'liq vazifalarni belgilash;

UKK 4. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil yetish va dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik.

V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

•ma'ruzalar;
• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
• interfaol keys-stadilar;
•guruhlarda ishlash;
•taqdimotlarni qilish;
•individual loyihalar;
•jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VI. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1.Zuyeva L.P., Yafayev R.X. Epidemiologiya. Uchebnik. Sankt –Peterburg. Foliant. 2008g.

2.Mirtazayev O.M.«Epidemiologiyadan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma»., T-2003y.

3.Pokrovskiy V.I., Pak S.G., Briko N.I., Danilkin B.K. Infektsionnыye bolezni i epidemiologiya. Uchebnik. -Moskva. "GEOTAR-media". 2008 g.

4.Mirtazayev O.M., Zuyeva L.P., Matnazarova G.S. Epidemiologiya. Darslik. Toshkent. "Adabiyot uchqunlari". 2016 y.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1.Briko N.I., Pokrovskiy V.I.«Epidemiologiya», Uchebnik.M., 2015 g.

2.Rekomendatsii po provedeniyu pervichnıx meropriyatiy pri vıyavlenii bolnogo podozritelnogo na zabolevaniye chumoy, xoleroy, virusnımi gemorragicheskimi lixoradkami, ospoy obezyan. T, 2006 g.

3.Prikaz № 490. "O sovershenstvovanii meropriyatiy po profilaktike lyudey beshenstvom" T, 2004 g.

4.Uchebnoye rukovodstvo «Aktualnıe voprosы VICh infektsiy v deyatelnosti vracha obщey praktiki». 2011 g.

5.Prikaz № 74. O merax po profilaktike peredachi VICh ot materi rebenku v

rodovspomogatelnıx uchrejdeniyax Minzdrava. T., 2008 g.
6.Prikaz № 542 Epidemiologiya virusnıx gepatitov. Organizatsiya profilakticheskix i protivoepidemicheskix meropriyatiy. T., 2018 g.
7.Prikaz № 595 O merax po sovershenstvovaniyu borbı s diareynıımi zabolevaniyami v Respublike. T., 2007 g.
8.Kasimov I.A., Shomansurova Sh.Sh., Koshkarov A.J. i dr. Immunoprofilaktika. Uchebnoye posobiye. Nukus, 2018 g.
9.Kosimov I.A., Shomansurova Sh.Sh., Koshkarov A.J. I dr. Immunoprofilaktika. O'quv qo'llanma. T., 2019 y.
10.Abdushukurov A.A, Ulьmasova S.I., Koshkarov A.J. i dr. Beshenstvo. Uchebnoye posobiye. Nukus, 2018 g.

Internet saytlari:

1.www.infectology.ru/. Infektsionnıe bolezni i parazitologiya
2.www.speclit.med-lib.ru/inf/index Meditsinskaya literatura
3.www.infectious disease news.com Novosti po infektsionnım boleznyam
4.www.medicina.org.ua/dek Resurs po lekarstvennım preparatam
5.http://www.rlsnet.ru Rossiyskaya entsiklopediya lekarstv (RLS)

Qoraqalqog'iston tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
Institut kengashining 20__ yil "___" _____dagi "___" – sonli bayonnomasi.

Fan modul uchun ma'sullar:
Ibragimova Z.K. Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, "Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya" kafedrasi assistenti
Mualliflar jamoasi – Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti "Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya" kafedrasi professor-o'qituvchilari.

Taqrizchilar:
Ataxanova D.O. – Gigiena kafedrasi mudirasi PhD
Niyazova G.T.– Qoraqalpog'iston Respublikasi OITS-ga qarshi kurash markazi t.f.n.